KOREYS TILIDA “XAYRLASHISH” VAZIYATIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

Yusupova Gulchexra Alisherovna

ToshDSHU tayanch doktoranti

uzsejonguli@gmail.com

Annotatsiya: Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, salomlashish va xayrlashish odati ijtimoiy hayotdagi tartib-qoidalar barqarorligi, kishilar o‘rtasidagi yaxshi munosabatlarni saqlab qolishga va ularni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy xatti-harakatlardir. Umumiy yoki muayyan vaziyatda uchrashganda yoki xayrlashayotganda do‘stona munosabatlarni saqlab qolish maqsadida xushmuomalalikni ifodalovchi maxsus so‘zlar aytiladi. Ushbu maqolada koreys tilida “Xayrlashish” vaziyatiga ta’sir etuvchi makon omili masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Mavqe, ijtimoiy omil, iyerarxiya, turg‘un ibora, etiket, marosim, odob-axloq.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СИТУАЦИЮ «ПРОЩАНИЯ» В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Юсупова Гулчехра Алишеровна

ТГУВ, студентка базовой докторантуры

uzsejonguli@gmail.com

Аннотация: По мнению большинства исследователей, привычка здороваться и прощаться – это социальное поведение, направленное на поддержание и укрепление добрых отношений между людьми, стабильности порядков общественной жизни. При встрече или прощании в общей или конкретной ситуации произносятся специальные слова, выражающие вежливость, чтобы сохранить дружеские отношения. В данной статье анализируются вопросы местного фактора, влияющего на ситуацию «Прощания» в корейском языке.

Ключевые слова: Положение, социальный фактор, иерархия, устойчивая фраза, этикет, церемония, манеры

SOCIAL FACTORS AFFECTING THE SITUATION OF “FAREWELL” IN KOREAN

Yusupova Gulchekhra

TSUOS, student of basic doctoral studies

uzsejonguli@gmail.com

Annotation: According to the majority, the habit of saying hello and saying goodbye is social behavior aimed at maintaining and ensuring good relations between people, the stability of the order of observing life. When meeting or leaving in a general or specific situation, use special words to express politeness in order to maintain friendly relations. This article analyzes the issues of the local factor influencing the situation of “Farewell” in the Korean language.

Key words: Position, social factor, hierarchy, phrase, etiquette, ceremony, manner.

Kirish

Nutqiy odatning har qaysi vaziyatida ma'lum millat urf-odatlari, tiliga mansub bo'lgan maxsus turg'un formulalar xizmat qiladi, bu aloqa vositasi hisoblanadi. Jumladan, o'zbeklarda "Xayrlashuv" vaziyatida "Xayr", "Bo'pti", "Yaxshi qoling" /jo'novchi/, "Yaxshi boring" /kuzatuvchi/, "...ga salom ayting" kabi birliklar bilan birga diniy e'tiqodlar natijasida "Xudoga topshirdim" tarzida maxsus jumlalar ham yuzaga kelgan [1, b.40-41].

Koreys xalqi xayrlashayotganda, odatda, "안녕히 가세요" [annyeonghi gaseyo] "Yaxshi boring" deb xayrlashadi, lekin quyida berilgan iboralar bo'sh nutq etiketi ifodasi (빈말 인사 표현 [binmal insa pyohyeon]) bo'lib, u suhbatdosh bilan keyinroq ko'rishish istagini bildiradi. Jumladan, "나중에 (다음에) 뵙겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida] "Keyinroq ko'rishamiz"; 나중에 전화할게 [najunge jeonhwahalge]/ 다음에 연락드릴게요 [daeume yeollakdeurilgeyo] "Keyinroq qo'ng'iroq qilaman"; 나중에 밥 한번 먹자 [najunge bap hanbeon meokja] "Keyinroq bir ovqatlanaylik" / 나중에 술 한 잔 하자 [najunge sul han jan haja] "Keyinroq bir ryumkadan ichaylik" kabi iboralar tez-tez qo'shimcha qilinadi. Bunday xushmuomalalikni bildiruvchi iboralar, albatta, suhbatdosh bilan keyinroq bog'lanish yoki ovqatlanish uchun emas, balki yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladigan bo'sh nutq etiketi ifodalaridir [4, b. 4].

"Xayrlashish" vaziyatida makon omili muhim ahamiyat kasb etadi. Xayrlashishni makon omiliga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) turli uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda xayrlashish;
2) ish joyida xayrlashish.

1. Turli uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda xayrlashish. Koreys va o'zbek madaniyatlarida turli uchrashuvlar, marosimlar, mehmondorchilik, uyga mehmon kelganda va hokazo vaziyatlarda o'ziga xos xayrlashish iboralaridan foydalaniladi. Koreys muloqotining "Xayrlashish" vaziyatida ham xuddi "Salomlashish" vaziyatida qo'llaniladigan "안녕" [annyeong] (tinchlik va osoyishtalik) so'zidan hosil qilingan "안녕히 가십시오" [annyeonghi gasipsio], "안녕히 가세요" [annyeonghi gaseyo] "Yaxshi boring" birikmalaridan, shuningdek, "안녕" [annyeong] "Xayr" so'zining o'zidan ham foydalaniladi.

Misollarga e'tibor qaratamiz:

그런 속삭임속에서, 나는 밖으로 나오면서 은근히 한마디를 기다리고 있었다. 그러나 결국 "**안녕히 가십시오**"는 나오지 않고 말았다. 그것이 서울과의 차이점이었다 [2, b. 4].
Shunday shivir-shivirlar orasida men tashqariga chiqqanimda jimgina bir so'z kutdim. Biroq, oxirida bir og'iz "**Yaxshi boring**" ham deyishmadi. Bu yerning Seuldan farqi shu edi.

Aytilganlar bilan birga, "Xayrlashish" vaziyatida to'satdan, birdaniga vidolashib ketib qolish hurmatsizlik hisoblanadi. Shuning uchun bunday vaziyatlarda manzirat qilinib, "bo'sh nutq etiketi ifodalari"dan, ya'ni "xayrlashuv kalitlari"dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Koreys nutqiy etiketida ayniqsa, mehmondorchilikdan so'ng 초대해줘서 고마워요

[chodaehaejwoseo gomawoyo] “Taklif qilganingiz uchun rahmat”; 환상적인 파티였어요, 고마워요 [hwansangjeogin patiyeosseoyo, gomawoyo] “Ajoyib o‘tirish uchun rahmat”; 오늘 정말 즐거웠어요 [oneul jeongmal jeulgeowosseoyo] “Bugun haqiqatan yaxshi o‘tirdik”; 저는 지금 가는게 좋겠어요 [jeoneun jigeum ganeunge jokesseoyo] “Men endi ketsam yaxshi bo‘lardi”; 지금 가야 해요 [jigeum gayahaeyo] “Men endi ketishim kerak”; 너무 늦어서 가야 할 것 같아요 [neomu neujeoseo gayahalgeot gatayo] “Juda kech bo‘lib qoldi, endi men ham boray”; 또 올게요 [tto olgeyo] “Yana kelaman” singari manzirat iboralarining qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi**.**

“리안, 나는 **가야 해요**.” 고사 지내듯 그릇 앞에 무릎 꿇고 앉은 가람이 천천히 일어섰다 [6, b.133].

Rian, **endi men boray**. Idish-tovoq oldida duo qilayotgandek tiz cho‘kib o‘tirgan Garam sekin o‘rnidan turdi.

Shuni alohida qayd etish joizki, Koreyada ish, tadbir, uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda yosh jihatdan kichik bo‘lganlarning katta yoshli kishilardan oldinroq ketishi nojoiz hisoblanadi (masalan, xodimlar, albatta, rahbarning ketishini kutishlari va shundan keyingina ish joyini tark etishlari mumkin). Ammo ketish zarurati bo‘lgan vaziyatlarda 먼저 가겠습니다 [meonjeo gagetseumnida]; 먼저 갈게요 / 가볼게요 [meonjeo galgeyo/ gabolgeyo]; 먼저 갈게 [meonjeo galge] kabi iboralar ishlatiladi. Mazkur xayrlashuv iborasini so‘zma-so‘z “Men [sizdan] oldinroq ketaman” tarzida tarjima qilish mumkin. G‘arb madaniyati vakillari uchun mutlaqo tushunarsiz bo‘lgan ushbu ibora aksariyat hollarda “Men birinchi bo‘lib ketaman” yoki “Birinchi men ketaman” shaklida noto‘g‘ri tarjima qilinadi. Qayd etilgan xayrlashuv shaklini o‘zbek tiliga: “Aybga buyurmaysiz, ketishim kerak bo‘lib qoldi” yoki “Mayli endi men boray” tarzida o‘girish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, koreys muloqotida yuqoridagi holatlarda 먼저 실례합니다 [meonjeo sillyehamnida] shaklidan ham foydalanish mumkin. Misollarga e’tibor qarating:

“헉, 벌써 30 분이 넘었네. 농도 확인해야 하는데……. 저 **먼저 가볼게요**!” [6, b. 176]

– “Voy, birpastda 30 daqiqadan oshib ketibdi. Men konsentratsiyani tekshirishim kerak … . Mayli, **endi men boray**.

2. Ish joyida [xayrlashi]**sh.** Koreys nutqiy etiketida ish joylarida xodimlar orasida turli xayrlashish qoliplaridan keng foydalaniladi. Ish kuni tugaganda, odatda, hamkasblar bir-birlari bilan “안녕히 가십시오” [annyeonghi gasipsio] “Yaxshi boring” deb xayrlashishadi. Masalan:

차장은 기분이 좋다고 한다. 나는 기분 나쁘다. 자고 싶다. 곧바로 길가에 쓰러질 듯 피곤하다. “저는 집에 갑니다. **안녕히 가십시오**.” [5, b. 9]

Boshliq o‘rinbosarimizning kayfiyati yaxshi edi. Mening esa kayfiyatim unchalik emas. Uyqim kelyapti. To‘g‘ri yo‘lda yiqiladigandek charchaganman.

– Men uyga ketyapman. **Yaxshi boring**.

Ishdan vaqtliroq chiqib ketayotgan kishi hamkasblariga 내 일 뵙 겠 습 니 다 [naeil boepgetseumnida] “Ertaga ko‘rishamiz”/ “Ertagacha”; 먼저 가겠습니다/ 가보겠습니다/ 들어 가 보 겠 습 니 다 [meonjeo gagetseumnida/ gabogetseumnida/ deureoga bogetseumnida] “Oldinroq boray”/ “Bo‘pti ketdim”; 먼 저 실 례 하 겠 습 니 다 [meonjeo sillyehagetseumnida] “Uzr so‘rayman”/ “Uzr, ketishim kerak” deb xayrlashadi. 먼 저 [meonjeo] “oldin, oldinroq avval” so‘zini o‘z ichiga olgan mazkur ifodalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzr, kechirimni ifodalamaydi. 먼 저 실 례 하 겠 습 니 다 [meonjeo sillyehagetseumnida] “Uzr so‘rayman” qolipi ish kuni tugamasdan ishdan erta chiqib ketilgandagina qo‘llaniladi. Bugungi kunda mazkur ifodani tez-tez uchratish mumkin bo‘lsa-da, u ilgari iste’molda bo‘lmagan:

“...걱정해 주셔서 감사합니다. **그럼 먼저 가보겠습니다**.” 뒷머리를 긁적이던 담당자가 꾸벅 인사를 건네고서 재빠르게 사무실로 몸을 숨겼다 [6, b. 74].

– “G‘amxo‘rligingiz uchun rahmat. **Mayli men ketdim**”. Boshini qashib turgan mas’ul xodim bosh irg‘ab, idoraga shoshilinch kirib ketdi.

Zamonaviy koreys odob-axloq qoidalarida “Xayrlashish” vaziyatida 내일 뵙겠습니다! [naeil boepgetseumnida!] “Ertaga ko‘rishamiz!” shakli ham eng keng tarqalgan vidolashish qoliplaridan biri hisoblanadi. Bu hurmat darajasi eng yuqori bo‘lgan shakldir. Hurmat darajasi mavjud bo‘lgan, lekin do‘stonalik munosabati kamroq vaziyatlarda 내 일 봅 시 다 ! [naeil bopsida!] “Ertaga ko‘rishamiz!” qolipidan istifoda etiladi. Do‘stona vaziyatlarda esa hurmat darajasi saqlangan 내 일 봐 요 !/ 뵈 어 요 ! [naeilbwayo!/ boeeoyo!] “Ertaga ko‘rishguncha!” shakli qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, koreys madaniyatida “Xayrlashish” vaziyatida muayyan qoliplarni nutqda qo‘llash bilan chegaralanmaydi. Suhbatdoshlar o‘rtasida aksariyat hollarda xushmuomalalikni bildiruvchi qo‘shimcha iboralar ham qo‘llaniladi. Mazkur iboralarni suhbatdosh bilan keyinroq bog‘lanish, uchrashish yoki ovqatlanish uchun emas, balki samimiylikni, yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladigan sof mulozamat iboralari deyish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Iskandarova Sh.M. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. … diss. – Samarqand, 1993.
2. 김승옥. 무진기행. 사상계, 1964.
3. 루연.네게 달뜨다. Renee, 2018.
4. 문금현, 한국어 빈말 인사 표현의 사용 양상과 특징. 숙명여자대학교 국어국문학과. 2009.
5. 윤지오. 용감하게. 지아스하트, 2018.
6. 은화성. 겨울의 강. 1 권. 서울: 이색, 2022.
7. 천선란. 어떤 물질의 사랑. 아작, 2020.